

YURIDIK TERMINLARNI SINXRON TARJIMA QILISH MUAMMOLARI (SHHT anjumanlari materiallari asosida)



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7394090>

Safarova Iroda Yorqul qizi

stajyor-o‘qituvchi

Tel: +998 93 597 51 11 E-mail: iroda.safarova.24@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ShHT anjumanlarida yuridik terminlarni sinxron tarjima qilish va ularning xitoycha konstruksiyalardagi o‘rni xususidagi dolzarb muamolar atroflicha muhokama qilingan. bundan tashqari, ShHT sammitiga oid yuridik hujjatlar orqali misollar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: *Shanhay Hamkorlik Tashkiloti, sinxron tarjima, konstruksiyalar, sammit, yuridik hujjatlar.*

ABSTRACT

This article discusses in detail the topical issues of simultaneous translation of legal terms at SCO conferences and their place in Chinese constructions. in addition, examples are given through legal documents related to the SCO summit.

Key words: *Shanghai Cooperation Organization, simultaneous translation, constructions, summit, legal documents.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonunlarning soni ko‘payib borayotgani yuridik terminologiyani yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘tkazilayotgan xalqaro anjumanlarda, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va strategik munosabatlarni o‘rnatishda yuridik terminlarning muhim o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatmoqda.

Sinxron tarjima tadqiqotlari sirasida yuridik terminlarni tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilar ekanmiz, uning asoschilari sifatida tarkibiy usulning paydo bo‘lish tarixi XX-asr boshlarida rus va polshalik olim I.A.Boduyen de Kurtene, shveysariyalik tilshunos F. de Sossyur (1857-1913), rus tilshunosi N.S.Trubeskoy va boshqalarning asarlari ta‘sirida shakllanganligini guvohi bo‘lamiz. Ushbu uslub o‘z rivojlanishini uchta strukturalizm maktabida boshlagan. Ilk maktab Sharqiy Yevropa strukturalizmi, bu Praga lingvistik maktabiga tegishli bo‘lib, bu tushunchani o‘z

uslubiga asoslanib, birinchi navbatda, fonologiyaga va undan tilning boshqa sohalariga kiritgan, asosan morfologiya va semantikaga bo‘limlariga. Ikkinchi lingvistik maktab Kopengagen bo‘lib, Daniya strukturalizmi deb ataladi, u tilda algebraik munosabatlar haqidagi ta‘limotni, glossematikani ishlab chiqdi. Uchinchi esa Amerika strukturalizmini tavsiflovchi tilshunoslikdir. U tarqatish konsepsiyasini ishlab chiqdi va unga asoslanib, fonologiya, morfologiya va elementar jumllarni tahlil qilishni tavsiflash usulini yaratdi. Tarkibiy usullarning xilma-xilligi mavjud bo‘lib uning doirasida taqsimot tahlili, komponentli tahlil usuli, to‘g‘ridan-to‘g‘ri komponentlar usuli va transformatsion tahlil usuli paydo bo‘ldi.

Ma‘lumki, rasmiy hujjatlar mantiqiy-formal uslubi, aniqligi bilan ham xarakterlanadi, shu sababli yuridik matn va qonuniy hujjatlarda ishlatilgan tushunchalar va terminlar ma‘nolarining noaniqligi, buzilishiga toqat qilinmaydi. Xususan, quyida misol tariqasida keltirib o‘tiladigan matn tarkibida ham aynan fikrimizni isbotini guvohi bo‘lamiz, bunday vaziyatlarda tarjimon qaltis xatoga yo‘l qo‘ymasligi, raqamlar bilan ishlaganda eng yaxshi usul ketma-ket qayd qilib borish hisoblanadi. 40 mamlakatdan 200 dan ortiq ishtirokchilar 2020 yil 19 noyabrda Jahon bolalar kuni arafasida bo‘lib o‘tgan veb-forumda pandemiya sharoitida bardavom, inklyuziv va sifatli ta‘lim masalalarini muhokama qildilar. “在世界儿童日国际视频论坛 第一次全体会议上的发言” [1] Butunjahon bolalarni himoya qilish kuniga bag‘ishlangan xalqaro video forum” dan quyidagi matn tarkibidagi konstruksiyalar tahlil qilindi.

感谢米尔济约耶娃主席的盛情邀请。值此2020年世界儿童日即将到来之际，很高兴通过视频与大家共同研讨新冠肺炎疫情影响下儿童教育问题。在此，我谨代表中华全国妇女联合会对论坛的召开表示热烈祝贺！对各位朋友致以亲切问候和美好祝愿！

Gǎnxiè mǐ'ěr jì yuē yé wá zhǔxí de shèngqíng yāoqǐng. Zhí cǐ 2020 nián shìjiè értóng rì jíjiāng dàolái zhī jì, hěn gāoxìng tōngguò shìpín yǔ dàjiā gòngtóng yántǎo xīnguān fèiyán yìqíng yǐngxiǎng xià értóng jiàoyù wèntí. Zài cǐ, wǒ jǐn dàibiǎo zhōnghuá quánguó fùnǚ liánhé huì duì lùntán de zhàokāi biǎoshì rēliè zhùhè! Duì gèwèi péngyǒu zhì yǐ qīnqiè wènhòu hé měihǎo zhùyuàn!

Birinchi xonim Mirziyoevaga samimiy taklif uchun o‘z minnatdorchiligimni bildiraman. 2020-yilgi Butunjahon bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan men siz bilan video orqali koronavirus pnevmoniya epidemiyasi ta‘sirida bolalar ta‘limining barcha masalalarini muhokama qilishdan bag‘oyatda mamnunman. Shu

o‘rinda, Butun Xitoy ayollar federatsiyasi nomidan forumning o‘tkazilishi munosabati bilan samimiy tabriklarimni izhor etaman! Barcha do‘stlarga samimiy salomlar va eng yaxshi tilaklarni tilab qolaman!

1) 感谢米尔济约耶娃主席的盛情邀请。“感谢……的盛情邀请”(gǎnxiè.....de shèngqíng yāoqǐng) bu erda ushbu konstruksiya “...taklifingiz uchun o‘z minnatdorchiligimni bildiraman” tarzida ifodalanadi;

2) 值此 2020 年世界儿童日即将到来之际。“值此……之际”(Zhí cǐ.....zhī jì) bu erda ushbu konstruksiya “...munosabati bilan” tarzida tarjima qiliandi;

3) 我谨代表中华全国妇女联合会对论坛的召开表示热烈祝贺!“谨代表……热烈祝贺”(Jǐn dàibiǎo.....rèliè zhùhè) “...nomidan samimiy tabrik va tilaklarni izhor etmoq” tarzida beriladi;

Bundan tashqarida quyida matnning yana bir qismi tahlil qildik, tahlil natijasida matn garchi pandemiya sharoitida bardavom, inklyuziv va sifatli ta‘lim masalalarini hal etishga qaratilgan bo‘lasada, yuridik terminologiyaga oid terminlar va konstruksiyalar aniqlandi.

中国党和政府一贯高度重视儿童成长和儿童事业发展，始终坚持儿童优先原则，推动我国儿童事业取得历史性成就。**我们完善法律保护**，先后颁布实施《未成年人保护法》《母婴保健法》《义务教育法》等多部法律法规，形成了较为完备的保护儿童权利的法律体系。**我们强化政府责任**，将促进儿童发展纳入国家经济社会发展规划统筹推进，先后制定实施三个周期的《中国儿童发展纲要》，持续改善儿童生存、保护、发展的环境和条件。**我们开展专项行动**，建立了从学前教育到高等教育的学生资助体系，实施了农村义务教育阶段贫困家庭寄宿生生活补助政策、农村义务教育阶段学生营养改善计划和学前教育行动计划等。目前，我国儿童的基本权益得到优先保障，健康水平持续提升，农村儿童受教育水平大大提高，困境儿童得到全面保护。

Zhōngguó dǎng hé zhèngfǔ yīguàn gāodù zhòngshì értóng chéngzhǎng hé értóng shìyè fāzhǎn, shǐzhōng jiānchí értóng yōuxiān yuánzé, tuīdòng wǒguó értóng shìyè qǔdé lǐshǐ xìng chéngjiù. Wǒmen wánshàn fǎlǜ bǎohù, xiānhòu bānbù shíshī “wèi chéngnián rén bǎohù fǎ” “mǔ yīng bǎojiàn fǎ” “yìwù jiàoyù fǎ” dèng duō bù fǎlǜ

fǎguī, xíngchéngle jiàowéi wánbèi de bǎohù értóng quánlì de fǎlù tǐxì. Wǒmen qiánghuà zhèngfǔ zérèn, jiāng cùjìn értóng fāzhǎn nàrù guójiā jīngjì shèhuì fāzhǎn guīhuà tǒngchóu tuījìn, xiānhòu zhìdìng shíshī sān gè zhōuqí de “zhōngguó értóng fāzhǎn gāngyào”, chíxù gǎishàn értóng shēngcún, bǎohù, fāzhǎn de huánjìng hé tiáojiàn. Wǒmen kāizhǎn zhuānxiàng xíngdòng, jiànlìle cóng xuéqián jiàoyù dào gāoděng jiàoyù de xuéshēng zīzhù tǐxì, shíshīle nóngcūn yìwù jiàoyù jiēduàn pínkùn jiāting jìsùshēng shēnghuó bǔzhù zhèngcè, nóngcūn yìwù jiàoyù jiēduàn xuéshēng yíngyǎng gǎishàn jìhuà hé xuéqián jiàoyù xíngdòng jìhuà děng. Mùqián, wǒguó értóng de jīběn quányì dédào yōuxiān bǎozhàng, jiànkāng shuǐpíng chíxù tíshēng, nóngcūn értóng shòu jiàoyù shuǐpíng dàdà tígāo, kùnjìng értóng dédào quánmiàn bǎohù.

Xitoy partiyasi va hukumati bolalarning o‘sishi va tashabbuslarini rivojlantirishga doimo katta e’tibor berib, ularga ustuvorlik berish tamoyiliga doimo amal qilib, mamlakatim bolalar tashabbuslarining tarixiy yutuqlarini ilgari surdi. Huquqiy himoyani takomillashtirdik, “Voyaga etmaganlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Ona va bola salomatligini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Majburiy ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar kabi qator qonun va me’yoriy hujjatlarni e’lon qildik va hayotga tatbiq etib, ularni himoya qilishning nisbatan mukammal huquqiy tizimini shakllantirdik. Biz hukumatning majburiyatini kuchaytirdik, bolalar rivojlanishini rag‘batlantirishni milliy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejasiga kiritdik va bolalarning himoyasi uchun atrof-muhit va sharoitlarni doimiy ravishda yaxshilash maqsadida “Xitoy bolalarni rivojlantirish dasturi” ni uchta siklda ishlab chiqdik va amalga oshirdik. Biz maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha talabalarni moliyalashtirish tizimini yo‘lga qo‘ydik, kam ta’minlangan oilalardagi o‘quvchilarning qishloq joylarida majburiy ta’lim davrida internatlarga yashash uchun subsidiya siyosatini, qishloq joylarda majburiy ta’lim davrida talabalarning ovqatlanishini yaxshilash rejasini amalga oshirdik. va maktabgacha ta’lim bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ham yaratdik. Ayni paytda mamlakatimizda bolalarning asosiy huquq va manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratilib, sog‘lig‘ini mustahkamlash izchil ta’minlanib, qishloq bolalarining ta’lim-tarbiya saviyasi ancha yaxshilanib, og‘ir ahvolda qolgan bolalar har tomonlama himoya qilinmoqda.

4) 我们完善法律保护(Wǒmen wánshàn fǎlù bǎohù) Biz huquqiy himoyani yaxshilaymiz;

5) 我们强化政府责任(wǒmen qiánghuà zhèngfǔ zérèn) Biz hukumatning javobgarligini kuchaytiramiz;

6) 我们开展专项行动(wǒmen kāizhǎn zhuānxiàng xíngdòng) Biz tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiramiz;

Shuningdek, 中国党和政府 (Zhōngguó dǎng hé zhèngfǔ) Xitoy partiyasi va hukumat, 优先原则 (yōuxiān yuánzé) ustuvorlik prinsipi, 历史性成就 (lìshǐ xìng chéngjiù) tarixiy yutuq, 先后颁布实施 (xiānhòu bānbù shíshī) ketma-ket e’lon qilingan va amalga oshirilgan chora-tadbirlar, 《未成年人保护法》 (“wèi chéngnián rén bǎohù fǎ”) “Voyaga etmaganlarni himoya qilish to’g’risida”gi qonun, 《母婴保健法》 (“mǔ yīng bǎojiàn fǎ”) Ona va chaqaloq salomatligi to’g’risidagi qonun, 《义务教育法》 (“yìwù jiàoyù fǎ”) Majburiy ta’lim to’g’risidagi qonun, 法律法规 (fǎlǜ fǎguī) qonun va qoidalar, 完备的保护 (wánbèi de bǎohù), To’liq himoya qilish, 权利的法律体系 (quánlì de fǎlǜ tǐxì) huquqiy tizim, 制定实施 (zhìdìng shíshī) shakllantirish va amalga oshirish, 补助政策 (bǔzhù zhèngcè) subsidiya siyosati, 儿童的基本权益得到优先保障 (értóng de jīběn quányì dédào yōuxiān bǎozhàng) bolalarning asosiy huquq va manfaatlariga ustuvor ahamiyat berilishi, 全面保护 (quánmiàn bǎohù) to’liq himoya singari yuridik terminlar aniqlandi va shu tarzida tarjima qilindi.

Tahlilga ko’ra matn 1957 ta ieroglif va 498ta so’zdan iborat bo’lib, matn tarkibida 26 ta konstruksiya ishlatilganligi aniqlandi, bundan tashqari matnda 145 ta yuridik terminologiyaga oid terminlar tarjima qilindi.

Shuningdek, “上合组织秘书长会见东盟成员国驻华大使” “ShHT Bosh kotibi ASEANga a’zo davlatlarning Xitoydagi elchilari bilan uchrashuvi”da suhbat davomida berilgan tarjimaga asoslanib, “2020年12月18日, 上合组织秘书长弗拉基米尔·诺罗夫与东盟成员国驻华大使举行会见。诺罗夫感谢泰国大使的邀请, 并指出, 东盟是上合组织珍贵的合作伙伴, 双方应继续加强互利合作, 共同开展活动。”

秘书长将 11 月由俄罗斯和印度分别组织的上合组织元首峰会、上合组织政府首脑理事会的成果向东盟成员国大使代表团做了介绍。他同时还强调, 在 2021 年上合组织即将年满 20 周岁, 因此计划在组织框架下举办系列活动, 同

包括东盟在内的区域及国际组织共同推动一批项目。据此，诺罗夫又指出了尽快通过并实施《2021-2022年上合组织秘书处与东盟拟办活动清单》的重要性。”

“Shàng hé zǔzhī mìshū zhǎng huìjiàn dōngméng chéngyuán guó zhù huá dàshǐ” ya ‘ni “ShHT Bosh kotibi ASEANga a ‘zo davlatlarning Xitoydagi elchilari bilan uchrashuvi”da suhbat davomida berilgan tarjimaga asoslanib, “2020 nián 12 yuè 18 rì, shàng hé zǔzhī mìshū zhǎng fú lā jī mǐ’èr•nuò luō fū yǔ dōngméng chéngyuán guó zhù huá dàshǐ jǔ háng huìjiàn. Nuò luō fū gǎnxiè tàiguó dàshǐ de yāoqǐng, bìng zhǐchū, dōngméng shì shàng hé zǔzhī zhēngguì de hézuò huǒbàn, shuāngfāng yīng jìxù jiāqiáng hùli hézuò, gòngtóng kāizhǎn huódòng. Mìshū zhǎng jiāng 11 yuè yóu èluósī hé yìndù fēnbié zǔzhī de shàng hé zǔzhī yuánshǒu fēnghuì, shàng hé zǔzhī zhèngfǔ shǒunǎo lǐshì huì de chéngguǒ xiàng dōngméng chéngyuán guó dàshǐ dàibiǎo tuán zuòle jièshào. Tā tóngshí hái qiángdiào, zài 2021 nián shàng hé zǔzhī jíjiāng nián mǎn 20 zhōusù, yīncǐ jìhuà zài zǔzhī kuàngjià xià jǔbàn xiliè huódòng, tóng bāokuò dōngméng zài nèi de qūyù jí guójiè zǔzhī gòngtóng tuīdòng yī pī xiàngmù. Jù cǐ, nuò luō fū yòu zhǐchūle jǐnkuài tōngguò bìng shíshǐ “2021-2022 nián shàng hé zǔzhī mìshū chù yǔ dōngméng nǐ bàn huódòng qīngdān” de zhòngyào xìng.”

“2020 yil 18 dekabrda ShHT Bosh kotibi Vladimir Norov ASEANga a ‘zo davlatlarning Xitoydagi elchilari bilan uchrashdi. Norov Tailand elchisiga taklif uchun minnatdorchilik bildirdi va ASEAN ShHTning oliyjanob hamkori ekanini, tomonlar o ‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashda va birgalikda faoliyat olib borishda davom etishini ta’kidladi.

Bosh kotib **noyabr oyida** ASEANga a’zo davlatlar elchilari delegatsiyasini Rossiya va Hindiston tomonidan tashkil etilgan ShHT davlat rahbarlari sammiti va ShHT hukumat rahbarlari kengashi natijalari bilan tanishtirdi. U, shuningdek, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti **2021 yilda tez orada 20 yoshga** to’lishini ta’kidladi, shuning uchun u bir qator loyihalarni mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar, jumladan, ASEAN bilan birgalikda ilgari surish uchun tashkiliy asnoda bir qator tadbirlarni tashkil etishni rejalashtirmoqda. Shunga ko’ra, Norov "Shanxay hamkorlik tashkiloti kotibiyati va ASEAN tomonidan **2021-2022 yillarda** tashkil etiladigan tadbirlar ro‘yxati" ni imkon qadar tezroq qabul qilish va amalga oshirish muhimligiga ham ishora qildi” [2]. Ushbu tarjima orqali tarjimondan vaqtga doir raqamlarga nihoyatda aniqlik kiritish hamda yuqori hushyorlik bilan tarjimoni amalga oshirishi talab etiladi. Qator konferensiyalarda aynan sonlar ishtirok etgan jarayonda tarjimon albatta diqqatini jamlashi, sonlarda adashmaslik uchun ularni qayd etib borishi maqsadga muvofiq bo’ladi. “ShHT Bosh kotibi ASEANga a’zo davlatlarning Xitoydagi

elchilari bilan uchrashuvi” matni 1206 ta ieroglif va 398 ta soʻzdan iborat boʻlib, ulardan 43 tasi yuridik terminologiyaga oid termin ekanligi hamda 17 ta qolipli birikmadan foydalanganligi aniqlandi. Ushbu matnning toʻliq shakli bilan tanishganimizda quyidagi qolipli birikmalar aniqlandi:

1) 满意地回顾了两国政府和两国人民之间的友好关系 (Mǎnyì dì huíguò liǎng guó zhèngfǔ hé liǎng guó rén mǐn zhī jiān de yǒuhǎo guānxì) “Ikki davlat hukumati va xalqlari oʻrtasidagi doʻstona aloqalarni mamnunlik bilan baholamoq”;

2) 有助于维持繁荣与稳定 (yǒu zhù yú wéichí fánróng yǔ wending “Taraqqiyot va barqarorlikni qoʻllab-quvvatlashga yordam berish”;

3) 有助于两国关系在新的基础上进一步发展 (yǒu zhù yú liǎng guó guānxì zài xīn de jīchǔ shàng jìnyībù fāzhǎn) “Yangi negiz asosida ikki davlat oʻrtasidagi aloqalarni rivojlanishi va mustahkamlanishiga poymdevor yaratish”;

4) 经过两国政府代表团的会议，同意声明如下 (jīngguò liǎng guó zhèngfǔ dàibiǎo tuán de huìyì, tóngyì shēngmíng rúxià) “Ikki davlat hukumat delegatsiyalari muzokaralari natijasida quyidagilarga kelishildi” singari qolipli birikmalar yuridik hujjatlarning asosan kirish qismida qoʻllanilishi kuzatildi. Hujjatning asosiy qismi individual xarakterga ega boʻlganligi bois, qolipli birikmalarning qoʻllanilishi nisbatan cheknanlangan. Hujjatning yakuniy qismida odatda qolipli birikmalar qoʻllanilishi kuzatildi, bu esa hujjatning kuchga kirish borasidagi rasmiyatchilikga urgʻu beradi.

Xulosa. Sinxron tarjima nafaqat oʻzining anchagina qiyin va murakkab ekanligi, balki eng tezkor tarjima sifatida oʻta muhim va qimmatli ekanligi bilan ham ajralib turadi. Agar yozma – yozma tarjima yordamida bir tildagi maʼlumot ikkinchi tilga maʼlum vaqt oraligʻidan soʻng etkazilsa, ogʻzaki – ogʻzaki tarjima, ayniqsa uning sinxron tarjima turi bir tildagi maʼlumotning ikkinchi tilga etkazilishi uchun hech qanday vaqt oraligʻiga hojat qoldirmaydi. Boshqacha qilib aytganda, agar tarjimaning boshqa turlari faqat maʼlum vaqt oraligʻini bosib oʻtish sharti bilan tillar oʻrtasidagi toʻsiqni olib tashlashga erishsa, sinxron tarjimaning maqsadi tillar oʻrtasida shunday farq yoki toʻsiqning mavjud ekanligini bilintirmaslikka, tafovutlar oʻrtasidagi vaqt oraligʻini esa keskin qisqartirishga qaratilgan boʻladi.

Шунинг билан бирга, синхрон таржимон нафақат икки тилни яхши билиши, балки икки тил тегишли бўлган мамлакатларнинг сиёсий, ижтимоий, маданий ва иқтисодий ҳаётининг, илм-фанининг барча соҳалари, шунингдек ушбу мамлакатлар халқлари маданияти, урф-одати, дунёқараши ва менталитети

тўғрисида иложи борича кўпроқ маълумотга эга бўлиши, ушбу мамлакатлар ҳаётида юз бераётган воқеалар ва жараёнлардан хабардор бўлиб туриши лозим бўлади.

REFERENCES

1. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N., Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012. – 235 b.
2. John Lyons. Language and Linguistics. Cambridge University press. London. 2000., 31 p.
3. <https://www.zaminfoundation.ngo/oz/articles/webforum2020>
4. www.sectsco.org